XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 5 - yanvar VI-63-2-11-168-K/23 Marg‘ilon shahar hokimligi

Marg‘ilon shahri bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq Marg‘ilon shahar xokimligi moliya bo‘limi va davlat soliq inspeksiyasining “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 9 dekabrdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash bo‘yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko‘ra, quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023 yilda 1,1 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

Farg‘ona viloyati uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 33,0 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 297,0 so‘m bazaviy

soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlarini belgilash bo‘yicha Marg‘ilon shahar hokimligi moliya bo‘limi va davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi maqullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

Marg‘ilon shahri hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Marg‘ilon shahri hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Shahar davlat soliq inspeksiyasiga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (T.Xusanov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

5. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (T.Xusanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ziyavitdinov**

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-63-2-11-168-K/23-son qaroriga
1-ilova

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил «30»декабрдаги VI/63-4-сонли
қарорига 1-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

минг сўмда

Т/р	Шаҳар ва туман номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун (1 га учун)
1	Марғилон ш	Дўстлик	0,78	24 453
2	Марғилон ш	Йўрмадўз	0,78	24 453
3	Марғилон ш	Саҳоват	0,98	30 723
4	Марғилон ш	Шолдирама	0,98	30 723
5	Марғилон ш	Ватан	0,98	30 723
6	Марғилон ш	Косибчилик	0,98	30 723
7	Марғилон ш	Бахрин	0,98	30 723
8	Марғилон ш	Қиргули	0,98	30 723
9	Марғилон ш	Надирмат	0,98	30 723
10	Марғилон ш	Туягум	0,98	30 723
11	Марғилон ш	Ёйилма	0,98	30 723
12	Марғилон ш	Тут таги	0,98	30 723
13	Марғилон ш	Узумзор	0,98	30 723
14	Марғилон ш	Рохат	0,98	30 723
15	Марғилон ш	Янги хаёт	0,98	30 723
16	Марғилон ш	Галатой	0,98	30 723
17	Марғилон ш	Арик буйи	0,98	30 723
18	Марғилон ш	Терак таги	0,98	30 723
19	Марғилон ш	Орол бўйи	0,98	30 723
20	Марғилон ш	Машад	0,98	30 723
21	Марғилон ш	Тошлоқ тепа	0,98	30 723
22	Марғилон ш	Чароғон	0,98	30 723
23	Марғилон ш	Байналминал	1,04	32 604
24	Марғилон ш	Хўжа порсо	1,04	32 604
25	Марғилон ш	Маориф	1,08	33 858
26	Марғилон ш	Увайсий	1,08	33 858
27	Марғилон ш	Милтиқсоз	1,08	33 858

28	Марғилон ш	Ипакчи	1,08	33 858
29	Марғилон ш	Узун ховуз	1,08	33 858
30	Марғилон ш	Ёвкочар	1,08	33 858
31	Марғилон ш	Зухро	1,08	33 858
32	Марғилон ш	Гулистон	1,08	33 858
33	Марғилон ш	Тоғлиқ	1,08	33 858
34	Марғилон ш	А.Яссавий	1,08	33 858
35	Марғилон ш	Тошкесар	1,08	33 858
36	Марғилон ш	Ипак йўли	1,08	33 858
37	Марғилон ш	Навбахор	1,08	33 858
38	Марғилон ш	Мустақиллик	1,08	33 858
39	Марғилон ш	Бобур	1,08	33 858
40	Марғилон ш	Истиқлол	1,08	33 858
41	Марғилон ш	Турон	1,08	33 858
42	Марғилон ш	Наврўз	1,08	33 858
43	Марғилон ш	Янги обод	1,08	33 858
44	Марғилон ш	Пичоқчи	1,08	33 858
45	Марғилон ш	Чилонзор	1,08	33 858
46	Марғилон ш	Гўриаввал	1,08	33 858
47	Марғилон ш	А.Навоий	1,10	34 485
48	Марғилон ш	Янги боғ	1,08	33 858
49	Марғилон ш	Б.Марғилоний	1,08	33 858
50	Марғилон ш	Қашқар	1,14	35 739
51	Марғилон ш	Иқбол	1,14	35 739
52	Марғилон ш	Ёрқин	1,14	35 739
53	Марғилон ш	Ўрда таги	1,14	35 739
54	Марғилон ш	Чор-чинор	1,14	35 739
55	Марғилон ш	Юксалиш	1,11	34 799
56	Марғилон ш	Нурафшон	1,04	32 604

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-63-2-11-168-K/23-son qaroriga
2-ilova

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил «30»декабрдаги VI/63-4-сонли
қарорига 2-илова

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м. учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

Т/р	Шаҳар ва туман номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун (1 кв учун)
1	Марғилон ш	Дўстлик	0,80	314,1
2	Марғилон ш	Йўрмадўз	0,80	314,1
3	Марғилон ш	Саҳоват	1,00	392,6
4	Марғилон ш	Шолдирама	1,00	392,6
5	Марғилон ш	Ватан	1,00	392,6
6	Марғилон ш	Косибчилик	1,00	392,6
7	Марғилон ш	Бахрин	1,01	396,5
8	Марғилон ш	Қиргули	1,01	396,5
9	Марғилон ш	Надирмат	1,05	412,2
10	Марғилон ш	Туягум	1,20	471,1
11	Марғилон ш	Ёйилма	1,00	392,6
12	Марғилон ш	Тут таги	1,00	392,6
13	Марғилон ш	Узумзор	1,00	392,6
14	Марғилон ш	Рохат	1,00	392,6
15	Марғилон ш	Янги хаёт	1,00	392,6
16	Марғилон ш	Галатой	1,00	392,6
17	Марғилон ш	Арик буйи	1,00	392,6
18	Марғилон ш	Терак таги	1,01	396,5
19	Марғилон ш	Орол бўйи	0,80	314,1
20	Марғилон ш	Машад	1,00	392,6
21	Марғилон ш	Тошлоқ тепа	0,80	314,1
22	Марғилон ш	Чароғон	0,80	314,1
23	Марғилон ш	Байналминал	1,00	392,6
24	Марғилон ш	Хўжа порсо	1,00	392,6
25	Марғилон ш	Маориф	1,05	412,2

26	Марғилон ш	Увайсий	1,05	412,2
27	Марғилон ш	Милтиқсоз	1,05	412,2
28	Марғилон ш	Ипакчи	1,05	412,2
29	Марғилон ш	Узун ховуз	1,10	431,9
30	Марғилон ш	Ёвкочар	1,10	431,9
31	Марғилон ш	Зухро	1,10	431,9
32	Марғилон ш	Гулистон	1,10	431,9
33	Марғилон ш	Тоғлиқ	1,00	392,6
34	Марғилон ш	А.Яссавий	1,05	412,2
35	Марғилон ш	Тошкесар	1,05	412,2
36	Марғилон ш	Ипак йўли	1,05	412,2
37	Марғилон ш	Навбахор	1,00	392,6
38	Марғилон ш	Мустақиллик	1,00	392,6
39	Марғилон ш	Бобур	1,05	412,2
40	Марғилон ш	Истиқлол	1,00	392,6
41	Марғилон ш	Турон	1,00	392,6
42	Марғилон ш	Наврўз	1,10	431,9
43	Марғилон ш	Янги обод	1,00	392,6
44	Марғилон ш	Пичоқчи	1,10	431,9
45	Марғилон ш	Чилонзор	1,01	396,5
46	Марғилон ш	Гўриаввал	1,05	412,2
47	Марғилон ш	А.Навоий	1,20	471,1
48	Марғилон ш	Янги боғ	1,05	412,2
49	Марғилон ш	Б.Марғилоний	1,11	435,8
50	Марғилон ш	Қашқар	1,02	400,5
51	Марғилон ш	Иқбол	1,10	431,9
52	Марғилон ш	Ёрқин	1,10	431,9
53	Марғилон ш	Ўрда таги	1,20	471,1
54	Марғилон ш	Чор-чинор	1,10	431,9
55	Марғилон ш	Юксалиш	1,02	400,5
56	Марғилон ш	Нурафшон	1,06	416,2